

Date: 23rd December-2025

**BOLALARDA GIPOTROFIYA HOLATIDA HAMSHIRALIK PARVARISHINI
TASHKIL ETISH**

Xamidova Zubayda Umarjonovna

Yadgarova Gulmira Muydinovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Qo‘qon jamoat salomatligi texnikumi

info@qjst.uz

Dolzarliligi. Bolalar sog‘lom rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri ularning tana vazni va o‘shish dinamikasidir. Gipotrofiya - bu bola organizmida modda almashinuvi buzilishi, oziq moddalar tanqisligi, ovqatlanishning yetarli emasligi yoki surunkali kasalliklar ta‘sirida tana vaznining yosh me‘yorlariga nisbatan 10-40% gacha kamayishi bilan kechuvchi patologik holatdir. So‘nggi ma‘lumotlariga ko‘ra, 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida gipotrofiya uchrash darajasi 7,4-8,1% atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich ayrim ijtimoiy jihatdan noqulay oilalarda 12-15% gacha yetadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra esa, har yili 45 milliondan ortiq bola o‘shishdan ortda qolish yoki tana vazni yetishmasligi bilan ro‘yxatga olinadi. Shuning uchun gipotrofiya bilan og‘rigan bolalarda parvarish sifatini oshirish, hamshiralik yondashuvini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Material va usullar. Tadqiqotning maqsadi - bolalarda gipotrofiya holatida hamshiralik parvarishini ilmiy asosda tashkil etish va uni takomillashtirish yo‘llarini aniqlashdir. Tadqiqotga kuzatuvda bo‘lgan 0-3 yosh oralig‘idagi 86 nafar bola jalb etildi. Ularning 28 nafari I-daraja, 39 nafari II-daraja va 19 nafari III-daraja gipotrofiya bilan ro‘yxatga olingan. Har bir bemorning ovqatlanish tartibi, antropometrik ko‘rsatkichlari (tana vazni, bo‘yi, ko‘krak aylanasi), laborator tahlillari (gemoglobin, umumiy oqsil, temir miqdori) hamda psixomotor rivojlanish darajasi baholandi. Tadqiqotda amaliyotga yo‘naltirilgan hamshiralik parvarishi tamoyillariga asoslanildi. Bunda asosiy e‘tibor quyidagi yo‘nalishlarga qaratildi: bola ovqatlanishini fiziologik ehtiyojga mos tashkil etish; issiqlik, tinchlik va emotsional muhitni ta‘minlash; parhez taomlarni tayyorlash gigienasiga qat‘iy rioya etish; ovqat hazm qilish tizimini me‘yorga keltirishga qaratilgan massaj, fizioterapevtik muolajalar va kundalik kuzatuvlarni o‘tkazish. Har bir bolaning holatiga qarab, hamshira tomonidan individual parvarish rejasi tuzildi.

Tadqiqot natijalari. Kompleks yondashuv asosida hamshiralik parvarishi olib borilgan 53 nafar gipotrofiya tashxisi qo‘yilgan bolalar 30 kun davomida muntazam kuzatuv ostida bo‘ldi. Parvarish jarayonida individual ovqatlanish rejasi tuzilib, yoshga mos parhez mahsulotlar asosida ovqatlanish tashkil etildi, issiqlik va emotsional muhit ta‘minlandi, gigienik qoidalar qat‘iy nazorat qilindi. Bolalarga yengil massaj, fizioterapevtik muolajalar va jismoniy faollikni oshiruvchi mashqlar o‘tkazildi.

Natijada 30 kunlik davolanish so‘ngida bemorlarning o‘rtacha tana vazni 550 ± 70 grammga oshdi (boshlang‘ich $6,1 \pm 0,3$ kg dan $6,65 \pm 0,28$ kg gacha), gemoglobin darajasi esa 104 g/l dan 118 g/l gacha ko‘tarildi. Psixomotor faollik 1,4 baravar yaxshilandi



Date: 23rd December-2025

($p < 0,05$). An'anaviy yondashuv qo'llanilgan 33 nafar bemorda esa tana vazni o'rtacha 310 ± 50 grammga, gemoglobin darajasi esa 108 g/l gacha oshgan xolos, bu farq statistik jihatdan ishonarli ($p < 0,05$).

Bundan tashqari, kompleks parvarish olingan bolalarda ishtahaning yaxshilanishi 83,9%, uyqu sifatining oshishi 79,2%, qayt qilish holatlarining kamayishi esa 65,7% hollarda qayd etildi. Olingan natijalar kompleks yondashuvning gipotrofiya kechishini yengillashtirishda, modda almashinuvi va umumiy sog'lomlashuvni tiklashda samarali ekanini ko'rsatdi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gipotrofiya bilan og'rigan bolalarda hamshiralik parvarishini to'g'ri tashkil etish ularning umumiy sog'lig'i, modda almashinuvi va psixofiziologik rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hamshiralik yondashuvi individual, tizimli va kompleks bo'lishi lozim. Har bir bolaning holatini muntazam nazorat qilish, parhez ovqatlanishni yo'lga qo'yish, ota-onalarni to'g'ri parvarish usullariga o'rgatish hamshiralik xizmatining samaradorligini oshiradi. Amaliyotda ushbu tamoyillarni qo'llash natijasida bolalarda tana vazni va gemoglobin ko'rsatkichlari yaxshilanadi, gipotrofiya darajasi kamayadi hamda sog'lom o'sish va rivojlanish ta'minlanadi.

